



**DIDAKTIK ASARLARDA MADANIYAT, MAKTAB VA PEDAGOGIK QARASHLARNI  
O'RGANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI**

**Muxammadiyeva Sevara Bahodirovna**

Mamlakatimizda bugungi kunga kelib mutafakkirlarning ma'naviy merosini, didaktik asarlarda madaniyat, maktab va pedagogik qarashlarni o'rganish hamda pedagogika tarixi fanining zamonaviy konsepsiyasini yaratish va yanada takomillashtirish borasida muayyan ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Jumladan, M.Xayrullayev, S.Ochilov, A.Choriyev, N.Choriyev, N.Saidahmedov, Sh.Qurbanov, R.Ahliddinov va boshqalarning ilmiy pedagogik monografiyalari va maqolalarida pedagogika tarixining tarkibiy qismlari, davrlashtirish muammolari hamda shaxs kamoloti yoritib berilgan. Ushbu tadqiqotlar ta'lif mazmunida o'z aksini topdi. Jumladan, «Pedagogika» (R.Mavlonova, O.To'raeva, K.Xoliqberdiev);

«Pedagogika tarixi» (K.Hoshimov, S.Nishonova, M.Inomova, R.Hasanov); «Pedagogika tarixi» (O.Hasanboeva, J.Xasanboev, H.Hamidov); «O'zbek pedagogika tarixi» (p.f.d. prof. Asqar Zunnunovning umumiy tahrir ostida), «O'zbek pedagogikasi antologiyasi» (K.Xoshimov va boshqalar) kabi darslik, o'quv qo'llanmalar shular jumlasidandir. O'rta Osiyo xalqlari, xususan, o'zbek xalqining tarixiy – pedagogik merosni ommalashtirish, yoshlarda milliy g'ururni va milliy ma'naviyatni o'stirish, shuningdek, talabalarni jahon pedagogika fani rivojlanish tarixi, qardosh hamdo'stlik davlatlari mutafakkirlarining ta'lif-tarbiya haqidagi qarashlari bilan tanishtirishga xizmat qilmoqda. Pedagogika tarixi quyidagi tartibda davrlashtirilgan:

- Eng qadimgi davrlardan VII asrning 1-choragigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikr;
- VII asrdan IX asrning birinchi yarmigacha O'rta Osiyoda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar;
- IX – XII asrlar. Sharq Uyg'onish davrida pedagogik fikrlarning rivojlanishi;
- XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movarounnahrda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji;
- XVII asrdan XIX asrning yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji;
- XIX asrning 2-yarmi – XX asrning 1-choragida Turkiston o'lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar, bundan keyingi davrlar.

XII asr oxiri va XIV asr birinchi yarmigacha Movoraunnahr va Xurosonda yaratilgan didaktik asarlarda madaniyat, maktab va pedagogik me'rosni o'rganish doirasida olib borilayotgan tadqiqot fan dasturining «IX – XII asrlar. Sharq Uyg'onish davrida pedagogik fikrlarning rivojlanishi» hamda «XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI

asrda Movarounnahrda tarbiya, maktab pedagogik fikrlar rivoji» davr oralig‘ini qamrab oladi.

Bir manbada Sharq Uyg‘onish davri IX asrdan boshlab XV- XVI asrlargacha davom etdil46, deyilgan bo‘lsa, yana bir manbada Sharq ilk Uyg‘onish davri IX asrdan boshlanib XII asrgacha davom etdi, deyiladi. Tarixdan ma’lumki, Markaziy Osiyoda IX – XII asrlarda Renessans yuzaga keldi va u butun dunyo tan oladigan mashhur mutafakkirlarni yetishtirib berdi. XV asrda Sohibqiron Amir Temur asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham sultanat ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. Ushbu ikki renessansni bo‘g‘lab turuvchi XII asr oxiri va XIV asr birinchi yarmigacha bo‘lgan davrda Movarounnahr va Xurosonda buyuk shaxslar yetishib chiqib, yuksak didaktik asarlar yaratilgan.

Mustaqillikdan keyingi va bugungi kungacha ta’lim mazmunini belgilab beruvchi me’yoriy hujjat fan dasturi asosida yaratilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalar XII asr oxiri va XIV asr birinchi yarmigacha Movarounnahr va Xurosonda yaratilgan didaktik asarlarda madaniyat, maktab va pedagogik me’rosni o‘rganish mazmunini o‘rganib chiqish, ushbu davr mazmun- mohiyatining qanchalik darajada yoritib berilganligi va o‘rganilganligini ko‘rsatadi.

Jumladan, Komiljon Hoshimov va Safo Ochil tomonidan chop etilgan «O‘zbek pedagogikasi antologiyasi»da XII asr oxiri va XIV asr birinchi yarmigacha Movarounnahr va Xurosonda yaratilgan didaktik asarlar mazmuni birinchi qism «Qadimgi o‘rtta asrda o‘zbek ta’lim-tarbiya maktabining rivojlanishi (VI-VIII asrlar)» mazmuniga singdirilganligini kuzatish mumkin. Shuningek, bu qismda ushbu asrga tegishli Shayx Najmuddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Pahlavon Mahmud shaxsi va ilmiy merosi yoritilgan. Ikkinchi qism «XIII-XIX asrlarda o‘zbek ta’lim-tarbiya maktabi va an’analari taraqqiyoti» deb nomlangan bo‘lib, Amir Temurning shaxsi va ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi o‘gitlardan boshlangan. Shu o‘rinda, XII asr oxiri va XIV asr birinchi yarmigacha Movarounnahr va Xuroson ta’lim-tarbiya taraqqiyoti mazmuni yetarlicha yoritilmaganligini kuzatish mumkin.

«Pedagogika tarixi» nomli darsligida XII asr oxiri va XIV asr birinchi yarmigacha Movoraunnahr va Xurosonda yaratilgan didaktik asarlar mazmuni uchta bob ichida singdirilgan. Jumladan, darslikning ikkinchi bob: VII-XIV asrlarda maktab, tarbiya va pedagogik fikr taraqqiyoti; uchinchi bob Sharq uyg‘onish davri va ta’lim-tarbita masalalari; to‘rtinchi bob Sharq pedagogik ta’limotida ta’limiy-axloqiy qarashlar deb nomlanadi. Ushbu boblar quyidagi mazmunni qamrab olgan bo‘lib, unda islom dini g‘oyalarining ta’lim-tarbiyaga ta’siri; musulmon maktablarida ta’lim-tarbiya, hadis ilmining paydo bo‘lishi; Imom al-Buxoriy va Imom at-Termiziyning hadis ilmi rivojiga qo‘sghan xizmatlari; Muhammad ibn Iso-Termiziy; hadislarning mazmuni va tarbiyaviy ahamiyati, so‘fiylik ta’limoti; Ahmad Yassaviy, Xo‘ja Abduxoliq G‘ijduvoniy, Bahovuddin Naqshband; Sharq Uyg‘onish davrida ilm-fan va madaniyat, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning ilmiy merosi va uning didaktik qarashlari; Abu

Nasr Forobiy; Abu Rayhon Beruniy; Abu Ali ibn Sino; ta’limiy- axloqiy qarashlarning paydo bo‘lishi; Yusuf Xos Hojib; Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asarida yetuk insonni kamolotga yetkazish masalalari; Kaykovusning «Qobusnama», Ahmad Yugnakiyning «Hibbat ul-haqoyiq» va Muslihiddin Sa’diyning «Guliston» asari.

XII asr oxiri va XIV asr birinchi yarmigacha Movoraunnahr va Xurosondagi madaniyat, maktab va pedagogik merosni o‘rganish borasida yetarli tadqiqotlar yaratilmagan. Faqat turli darslik va o‘quv qo‘llanmalarda ushbu davrga tegishli ayrim shaxslarga to‘xlalib o‘tilgan. Jumladan, Najmuddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Jaloliddin Rumiy, Sa’diy Sheroziy, Nosiriddin Rabg‘uziy kabi so‘fiy faylasuflar ijodiga munosabat bildirilgan. Didaktik asarlardan birgina, Sa’diyning «Guliston» asari tahlili keltirilgan. Ushbu davrga tegishli madaniy hayot, ta’lim-tarbiya jarayoni va bu jarayonni tashkil qiluvchi ta’lim mazmuni aniq va to‘liq yoritilmagan. Vaholanki ushbu davrda so‘fiy shoir, faylasuf Fariduddin Attor, Najmuddin Kubro, Sa’diy Sheroziy, Jaloliddin Rumiy, Burhoniddin Rabg‘uziy, Ziyovuddin Naqshabiy, Mahmud Shabustariy, Sayfiddin Boxarziy, Pahlavon Mahmud, olim faylasuflar: Nosiriddin Tusiy, Aziziddin Nasafiy, tarixchi faylasuflar: Avfiy Buxoriy, Ubayd Zokoniy, Juzjoniy Abu Umar Minxojiddin Usmon ibn Sirojiddin, Alouddin Otamalik ibn Bahouddin Muhammad al-Juvayniy, Rashiduddin Fazlulloh ibn Imomuddavla Abulkayr Hamadoniy, musiqashunos bastakor Safiuddin al-Urmaviylar tomonidan yaratilgan ilmiy meros o‘sha davr madaniy hayot, maktab va pedagogik merosga ulkan hissa qo‘shgan. Ular tomonidan xalq pedagogikasi tarixiga doir juda ko‘p didaktik asarlar yaratilgan bo‘lib, ularni chuqur o‘rganish, ulardagi eng qimmatli fikrlarni aniqlash, saralash, ulardan bugungi kunda ijodiy foydalanish hamda hayotga keng tatbiq etish hozirgi kunning muhim vazifasidir. Ilm sohiblari ta’lim- tarbiya sohasiga oid qimmatli asarlar yaratgan, ularning har biri ta’limiy-axloqiy asar sanalib, ularda pedagogik fikrlar ilgari surilgan. Jumladan, tarbiya haqidagi fikrlari chuqur, mantiqiylar va asosli bayon etilgan. Asrlar osha bu fikrlar o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Ular keng pedagogik jamoatchilik mulkiga aylanib, o‘sib kelayotgan yosh avlod ta’lim-tarbiyasi, ularni hayotga tayyorlash ishida katta yordam berib kelmoqda. Bu pedagogik meros ayniqsa hozirgi ma’naviy qadriyatlar tiklanayotgan bir sharoitda alohida qimmatlidir.

### **XULOSA**

Ta’lim jarayonida foydalaniladigan ta’lim mazmunining tahlili shuni ko‘rsatadiki, XII asr oxiri XIV asr boshlarida Movarounnahr va Xuroson tarixiga doir madaniy hayot, maktab va pedagogik merosni o‘rganish bo‘yicha to‘liq ma’lumot keltirib o‘tilmagan. Keltirilgan ma’lumotlarda ham ayrim allomalar shaxsi va ijodiga to‘xtalib o‘tilgan, xolos. Xususan, ular tomonidan yaratilgan ma’naviy meros hamda didaktik asarlarning pedagogik tahlili e’tibordan chetda qolgan. Vaholanki XII asr oxiri XIV asr boshlarida jamiyat qanchalik istilolarga uchramasin Markaziy Osiyoning keyingi ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy taraqqiyotiga yuksak hissa qo‘shgan va «Ikkinchi Renesans»ga asos solindi.